XIX – XX ASR MARKAZIY OSIYODA TARIXNAVISLIK
(XORAZM TARIXNAVISLIK MAKTABI AN'ANALARI XUSUSIDA)

Z.A.Ilhomov,
Professor, Nizomiy nomidagi O'zMPU

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.20001732

Annotatsiya. *Markaziy Osiyoda XIX asrda kechgan siyosiy-tarixiy jarayonlar, madaniy hayot va maorif sohasidagi o'zgarishlar bu davr tarixnavisligining murakkab jarayonlar bilan barobar mukammallashib borishiga ta'sir ko'rsatdi. Bu davrda an'anaviy tarixnavislikka nisbatan alohida xonliklar va ularning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotidagi jarayonlar, hukmdorlar sulolalari tarixiga e'tibor ko'proq qaratildi. Tarixnavislik xususiyatlari bilan farqlanuvchi Qo'qon, Xiva, Buxoro tarixnavislik maktablari shakllandi. Mazkur maqolada Xiva tarixnavislik maktabining ayrim xususiyatlari haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar. *Markaziy Osiyo, Xiva xonligi, tarix, tarixiy bayon, tarixnavislik, manbalar, tarixnavislik maktablari, tarjimalar, manbashunoslik.*

Аннотация. *Политико-исторические процессы, культурная жизнь и изменения в сфере образования, происходившие в Центральной Азии в XIX веке, способствовали совершенствованию историографии этого периода параллельно с протеканием сложных исторических процессов. В это время, по сравнению с традиционной историографией, большее внимание уделялось процессам в политической, экономической и социальной жизни отдельных ханств, а также истории правящих династий. Сформировались Кокандская, Хивинская и Бухарская историографические школы, отличающиеся своими особенностями. В данной статье рассматриваются некоторые характеристики Хорезмской историографической школы.*

Ключевые слова: *Центральная Азия, Хивинское ханство, исторический процесс, нарратология, историография, первоисточники, историографические школы, переводческая деятельность, источниковедческий анализ.*

Abstract. *The political and historical processes, cultural life, and changes in education that took place in Central Asia during the 19th century contributed to the refinement of the period's historiography alongside complex historical developments. During this era, in contrast to traditional historiography, greater attention was focused on the political, economic, and social life of individual khanates, as well as the history of ruling dynasties. Distinct historiographical schools emerged in Kokand, Khiva, and Bukhara, each characterized by its own unique features. This article examines certain characteristics of the Khorezm (Khiva) historiographical school.*

Keywords: *Central Asia, Khanate of Khiva, historical process, narratology, historiography, primary sources, historiographical schools, translation activities, source analysis.*

Kirish. Markaziy Osiyoda XIX asr tarixiy jarayonlari boshqa davrlardan o'zining Buxoro va Qo'qon, Buxoro v Xiva xonliklari hamda Qozoq xonliklari, O'rta Osiyo xonliklarining qo'shni davlatlar bilan o'ta faol siyosiy jarayonlari, diplomatik munosabatlari, tashqi savdo va iqtisodiy munosabatlar, ayniqsa, Rossiya hamda Buyuk Britaniya imperiyalarining tashqi siyosatdagi o'zaro raqobatlarining Markaziy Osiyoda to'qnashuvi natijasida yuzaga kelgan harbiy jarayonlar va keskin

siyosiy o‘zgarishlar bilan juda murakkab davr hisoblanadi. Ayni vaqtda mintaqaning madaniyati va ilm-fani tarixida o‘zgarishlar, ta’lim va maorif sohalaridagi yangilanishlar bu davr tarixnavisligining eng asosiy tadqiqot ob’ektlariga aylanish bilan bir vaqtda, tarixnavislik mahsuli bo‘lgan asarlar tarixnavislar tomonidan yoritib berilgan nafaqat voqealar bayoni, balki xonlik va amirliklarning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotini yorituvchi manbaga aylandi. XIX – XX asr boshlari Markaziy Osiyo tarixnavisligining asosiy markazlari Qo‘qon, Toshkent, Buxoro va Xivada shakllangan bo‘lib, maktab sifatida o‘ziga xos yo‘nalishlarini aks ettirganligi bilan xususiyatlanardi.

Dolzarbligi. Markaziy Osiyoda shakllangan tarixnavislik maktablari orasida Xorazm-Xiva tarixnavislik maktabi Buxoro va Qo‘qon tarixinavisligidagi an’anaviy tarixnavislikka nisbatan ayrim jihatlari bilan farqlangan. Bunday farqlar sifatida Xorazm tarixnavisligi bayonida o‘zbek tilining ustuvorligi, tarixnavislik asarlarining mazmun jihatdan tarixiy izchilligining bir-birini davom ettirishi va to‘ldirib kelishi xususiyatiga ko‘ra umumiy yaxlitlik kasb etishi, ayni vaqtda tarixnavislarning ham biri ikkinchisining faoliyatini davom ettirgan holda Xiva xonligi tarixining yaxlit va umumiy manzarisini shakllantirib berganligi, shuningdek, Xorazm tarixnavisligining bir yo‘nalishi sifatida o‘ziga xos tarjimachilik mktabining shakllanganligi kabilarni ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Xiva tarixnavislik maktabining Buxoro va Qo‘qon xonliklari tarixnavislik maktablaridan asosiy farqlaridan biri tarixnavislik asarlarining asosan o‘zbek tilida yozilganligi bilan belgilanadi. Tadqiqotchilarning ko‘rsatishicha, XIX asrda turkiy tildagi manbalar bo‘yicha Xorazm tarixnavislik maktabi yetakchilik qilgan bo‘lib, u yerda O‘rta Osiyo turkiysida tarix asarlari yaratilgan [4.4.].

Q.Munirovning yozishicha, -“O‘zbek tilida tarixiy asarlar yozish an’anasi O‘rta Osiyo xonliklaridan Xiva xonligida keng ko‘lamda davom ettirildi. Abulg‘oziy boshlagan ishni XIX asrda atoqli o‘zbek shoirlari va mashhur tarixnavislari Shermuhammad Munis va Muhammad Rizo Ogahiylar katta mahorat bilan davom ettirdilar. Bu buyuk olim va tarixnavislar Xorazm tarixini yozish bilan bir qatorda, shu sohada ma’lum maktab ham yaratdilar” [1.4.]. Xorazm-Xiva tarixnavislik maktabining Buxoro va Qo‘qon tarixnavislik maktablaridan farqlovchi eng asosiy belgisi tarixnavislikning tarixiy izchillik asosida solnomachilik a’anasini saqlagan holda davom ettirilishi, ya’ni bir tarixnavis boshlagan asarning boshqa bir tarixnavis tomonidan davom ettirilishidir. Bunda asarlarda tarixiy jarayonning davomiyligi ta’minlanib, Xiva xonligi tarixini yaxlit tarzda tushunish uchun juda katta imkoniyat yaratib berilgan. Bu borada ayniqsa, Munis, Ogahiy hamda Bayoniylarning tarixnavislik faoliyati aynan ana shu izchillikka rioya etgan holda, bir-ikkinchisining

davomi sifatida va uni to‘ldirib keluvchi asarlar sifatida yaratilganligi bir qator tadqiqotchilarning fikrlarida ta’kidlab o‘tiladi [2.664.].

Dastlab Shermuhammad Munis boshlab bergan tarixnavislikning bu yo‘nalishi keyinchalik muhammad Rizo Ogahiy tomonidan ham davom ettiriladi. “Tazkirai Qayyumiy”da yozilishicha, -“Eltuzarxon Shermuhammadga Xorazm tarixini ham yozishni vazifa etib topshirdi. 1806 nchi yilda Eltuzarxon vafot etgach, o‘rniga o‘lturgan Muhammad Rahimxon yana o‘shal ta’rixni davom ettirishni buyurdi. Bu asarning nomi Firdavs ul iqbol” bo‘lub, 1812 nchi yilgacha Xorazmga doir bo‘lub, o‘tmish voqealarni o‘z ichiga oladur edi [3.100.].

Muhokama. Bir holat e’tiborni tortadiki, u ham bo‘lsa Xiva xonlarining tarix asarlarini yozishga rag‘bat etishidir. Bu holatni Xorazm xonlarini tarixini yozish uchun O‘tamish Hojiga hukmdor Esh Sultonning farmon berganligi, Xiva xoni Abulg‘ozining o‘zi aynan shu maqsadda tarix asarlarini yozishni maqsad qilganligi, Eltuzarxonning Munisga, Olloqulixonning esa Ogahiyga ayni shunday farmonlar berganligi Xorazm tarixnavisligining o‘ziga xos bir jihati bo‘lib, xonlar tomonidan tarixga, uni o‘rganishga va mukammal asarlar yaratilishiga e’tiborlari va rag‘batlarining kuchli ekanligini dalillaydi. Shu an’ana Ogahiyning “Firdavs ul iqbol” asarining yozilishida ham asosiy sabab bo‘ladi. -“Adabiy mashg‘ulot Ogahiyga tog‘asi bo‘lmish mavlono Munisdan meros edi. Bul vaqt melodiy ila 1838 nchi yil ediki, Olloquli tomonidan mavlono Munisning boshlagan asari “Firdavs ul iqbol”ni davom ettirish buyurildi. Ogahiy II jildini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan voqealarni yoza boshladi. Muhammad Rahimxon II ning davrida ham bo‘lub, bu jildda Ogahiy taxriri ila 1872 nchi yilga qadarli bo‘lub o‘tmish tarixiy voqelar dars etilmushdur. Xorazm tarixi ustida Ogahiyning xizmati ziyoda bo‘lub muhim bir tarix yodgor qoldirdi [3.146-149.]. Yana bir manbada esa Muhammad Yusuf Bayoniyning Ogahiy asarlarini davom etirganligi ko‘rsatiladi: -“Ogahiyning tarixnavislik sohasidagi an’analari va tarixiy asari Muhammad Yusuf Bayoniy tomonidan davom ettirilgan” [5].Munis va Ogahiylarning tarixnavislik va tarjimachilik ishlarining davomchisi sifatida Q.Munirov ham Muhammad Yusuf Bayoniyning faoliyatini alohida ta’kidlab o‘tadi: -“Bularning ishini XIX asr va XX asrning boshlarida yashagan taniqli tarixnavis olim va shoir Muhammad Yusuf Bayoniy davom ettirdi” [1.4.].

Boshqa bir tadqiqotda qayd etilishicha, - “XIX asrning 2-yarmi - XX asr boshlarida esa bu an’anani Tabibiy va Bayoniy davom ettirdilar. Bayoniy «Tarixi Tabariy» kabi nasriy asarlar qatorida Kamoliddin Binoiyning «Shayboniynoma» nomli masnaviyda yozilgan tarixiy-badiiy asarini, Mavlono Darvesh Ahmadning arab tilidagi «Sahoyiful-axbor» («Xabarlardan sahifalar», 1-2-jildlari) nomli tarix kitobini mahorat bilan tarjima qildi” [6.218-227.].

Bu an’ana asosida Xiva xoni Muhammad Rahimxon II ning farmoni bilan Muhammad Rizo Tabibiy [7] Xorazmning qadimgi davrlardan XX asr boshlarigacha bo‘lgan va qo‘ng‘irotlar sulolasi hukmronligi va boshqaruvi masalalarini yoritib bergan “Tarixi Xorazmshohiy” asarini yozdi, asar Ogahiy tomonidan Xorazm tarixining 1872 yilgacha bo‘lgan bayonidan keyingi voqealarni ham davomi sifatida muhimdir [8.84-110]. Muhammad Rizo Tabibiy o‘zining “Tarixi Xorazmshoxiy” asari orqali Xorazmning XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida kechgan murakkab siyosiy va iqtisodiy jarayonlarni, shuningdek, Xorazm hududlaridagi madaniy sohadagi o‘zgarishlar va taraqqiyotning ahvoli kabi muammolarni izchil xronologik tartibda bayon etib bergan yiri saroy tarixchisi va tarixnavislaridan biri sanaladi.

Xorazm tarixnavislik maktaba an’analarining yana bir davomchisi Muhammad Yusuf Bayoniydir [9]. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida yashab ijod qilgan tarixchi Muhammad Yusuf Bayoniy “Shajarayi Xorazmshohiy” asarini yozar ekan, undagi ayrim voqealar tafsilotlarini o‘zidan avval Ogahiy tomonidan yozilgan asarlardan topmaganligi va endi bevosita o‘zi tarixiy jarayonlar ishtirokchilari va shohidlarining so‘zlaridan yozishga harakat qilganligini ta’kidlaydi: - *“.... yuqorida zikr etilgan davr tarixini* (Muhammad Rahimxon II ning (1865-1910 yy) 1872 yilgacha bo‘lgan xonlik davrini – muallif) *o‘sha davrda ishga aralashib yurgan bir necha keksa odamlarni topib, ulardan bo‘lgan voqealarni so‘rab, diqqat bilan haqiqatlab yozdim”*. Muhammad Yusuf Bayoniy “Xorazm tarixi” asarini yozishda tarix va uni tavsiflashga aohida e’tibor qaratadi va tarixni haqqoniy, ob’ektiv ravishda yozish shartligini uqtiradi: - “tarix kitobi yozishning bir sharti bor. Tarixiy voqealarni yozuvchi tarafdorlik etmasdan, bo‘lgan voqealarni rostlik bilan bayon etishi kerak. Agar rostlik bilan bayon etmasa, uning so‘zlari hech bir odamga ma’qul bo‘lmaydi” [10]. Shu tariqa Xorazm tarixnavisligining eng asosiy asarlari bo‘lgan Munisning “Firdavs ul iqbol” [11.517], Ogahiyning “Shohidul-iqbol” (Iqbol shahodati) [12.384.], . “Jome’ ul-voqeoti sultoniy” [13.126.], “Zubdatu-t-tavorix” (Tarixlar sarasi) [14.240.], “Riyozud-davla” [15.214.], Bayoniyning “Shajarai Xorazmshoxiy” [10] kabi yirik asarlar yaratildi va bugungi kunda ham Xorazm tarixining eng asosiy manbalari hisoblanadi [16.208.].

XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlari Xiva – Xorazm tarixnavislik maktabining asosiy yo‘nalishlaridan biri tarjimachilik sifatida baholanadi. Tarixiy asarlarning tarjimachiligi borasida Muhammad Rizo Ogahiyning [22] o‘rni bir qator tadqiqotchilar tomonidan alohida tadqiqot mavzusi sifatida o‘rganilgan va tarjimachilik maktabiga xos an’analarni shakllantira olganligi alohida ta’kidlanadi [23.349]. Tadqiqotchi H.Nazirova o‘z tadqiqotlarida Xiva tarixnavislik maktabining

bu jihatlariga alohida e’tibor qaratadi: -“Qo‘ng‘irotlar sulolasi davrida tarixiy, agiografik asarlarni arab hamda fors tilidan turkiyga faol va katta miqyosda tarjima qilish boshlandi. O‘z davrida shayboniy hukmdorlar ham bu ishga urinib ko‘rishgan edi. Biroq, Qo‘ng‘irotlar sulolasi barcha davrlar hukmdorlaridan bu sohada o‘zib ketgan edi. O‘tgan tarixni bunday «turkiylashtirish» madaniy jihatdan olib qaraganda, muhim ahamiyatga ega. Tarjimonlar badiiy matnni turkiy tilga o‘girishni asarning ommalashuvi, deb hisoblaydilar, chunki arab va fors tillarida yozilgan asarlar xos omma ehtiyojlariga javob berardi” [4.12-13.].

Tarixnavislikda bo‘lgani kabi tarjimachilik sohasida an’naviylik saqlanib qoldi. “Bu tarixnavislik maktabi namoyondalari faqat Xorazm tarixiga oid asrlar yozish bilan cheklanib qolmasdan, ko‘pgina tarixiy asarlarni boshqa Sharq tillaridan o‘zbek tiliga tarjima qildilar” [1.4.].

Ogahiy Mirxondning “Ravzat us-safo”, Muhammad mahdiy Astrobodiyning “Tarixi jahonkushoyi Nodiriy”, Zayniddin Vosifiyning “Badoe’ ul-vaqoe’”, Muhammad Muqi Xirotiyning “Tabaqoti Akbarshohiy”, Muhammad Yusuf Munshiyning “Tazkirai Muqimxoniy” kabi bir qancha tarixiy-badiiy asarlarni fors tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilgan [26.]. Boshqa bir manbada esa Ogahiyning bir qator tarixiy asrlar muallifi ekanligi va ayni vaqtda uning yigirmadan ortiq asarlarni arab va fors-tojik tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilganligi ko‘rsatib o‘tiladi: -“Ogahiy «Riyoz ud davla», «Zubdat ut tavorih», «Jome ul voqeoti sultoniy», «Gulshan davlat» va «Shohid ul iqbol» kabi asarlar muallifi. «Riyoz ud davla» asarida 1825 yildan 1842 yilgacha bo‘lgan Xorazm tarixi bayon etilgan. «Zubdat ut tavorih» da 1843 yildan 1846 yilgacha bo‘lgan Xorazm tarixi ifodalangan. «Gulshan davlat» asari o‘z ichiga 1856 dan 1865 yilgacha bo‘lgan tarixni o‘z ichiga olgan. Ogahiyning so‘nggi asari «Shohid ul iqbol» 1865 yildan 1872 yilgacha bo‘lgan davrga bag‘ishlangan. Ogahiy 20 dan ziyod tarixiy va badiiy asarlar o‘zbek tiliga tarjima qilgan” [27.].

Xorazm tarixnavislik maktabida tarjimachilikning an’anaviy tarzda davom ettirilishi va bu borada bir qator tarixnavislar hamda adiblarning faoliyat ko‘rsatganligi bu sohaning tarixnavislik bilan bir qatorda mukamallik kasb etganligi hamda tarixiy bayonni to‘ldirib kelishi bilan ahamiyatlidir. Bu borada ham Xiva xonlarining o‘zlari tashabbus ko‘rsatib, tarixnavislarga yirik tarixchilar va ularning asarlarini o‘zbek tilida xalqning tushunishi oson bo‘lgan usulda tarjima qilish topshiriqlarini berib kelganlar. Bu haqda “Tazkirai Qayyumiy”da quyidagilar ko‘rsatilgan: -“Muhammad Rahim Munis Xorazmiyga uchinchi vazifa etib Alisher Navoiy zamonida Mirxond tomonidan Xirot shahrida yozilshmish mashhur ta’rix kitobi “Ravzatus safo”ning tojik tilidan o‘zbek tiliga tarjima etishni buyurdi. Mavlono Munis esa bu muhimta’rixni ham tarjima I jildini tamom etdi. Ikkinchi jildi

ustida mashg‘ul edi. 1829 nchi yilda Xorazmda paydo bo‘lmish vabo kasaliga duchor bo‘lub bevaqt vafot etdi” [3.100.].

Ogahiy yigirmadan ortiq asarni fors tilidan o‘zbekchaga o‘girdi. XIX asrning 2-yarmi - XX asr boshlarida esa bu an’anani Tabibiy va Bayoniy davom ettirdilar. Bayoniy «Tarixi Tabariy» kabi nasriy asarlar qatorida Kamoliddin Binoiyning «Shayboniynoma» singari masnaviyda yozilgan tarixiy-badiiy asarlariga ham qo‘l urdi. Mavlono Darvesh Ahmadning arab tilidagi «Sahoyiful-axbor» («Xabarlardan sahifalar», 1-2-jildlari) nomli tarix kitobini mahorat bilan tarjima qildi. Atoulloh ibn Fazlulloh Husayniyning «Ravzatul-ahbob»i («Do‘stlar bog‘i») o‘zbekcha tarjimasini tahrir etdi. Komil Xorazmiy XVIII asrda yashagan Barxurdor Mumtozning «Mahbubul-qulub» («Ko‘ngullarning sevgani»), Faxriddin Ali Safiyning «Latoyifut-tavoyif» («Turli toifalarning latifalari») singari ixcham nasriy hikoya va latifalar to‘plamlarini o‘zbekchalashtirdi [28.]. Xorazm tarjima maktabi XVIII asrning oxiridan – XX asrning boshlarigacha davom etgan o‘zbek tarjimachilik tarixida eng sermahsul va barakali davr bo‘lgan. Ushbu davrda arab, fors, ozarboyjon va usmonli turk tillaridan 150 dan ortiq turli yo‘nalishdagi asarlar tarjima qilinib, o‘zbek xalqining ma’naviy mulkiga aylangan. Tarjimonlar orasida esa Ogahiy, Komil, Bayoniy, Tabibiy kabi ma’lum va mashhur nomlar bilan bir qatorda Muhammadrasul Mirzo, B.Sanoiy, Rojiy, Tolibxo‘ja, M. Rafe’, Habibiy, Mag‘furxo‘ja kabilar bor edi [6.218-227.]. Xorazm tarixnavislik maktabi vakillaridan yana bir Muhammad Rizo Tabibiy bo‘lib, u ham Xorazm tarixnavisligida o‘ziga xos an’analardan biriga aylangan xonlar ko‘rsatmasi bilan tarix yozish an’anasiga mos ravishda Xiva xoni Muhammad Rahimxon II ning farmoniga ko‘ra o‘zining “Majmuat ash-shuaroi Feruzshohiy” nomli tarixiy-badiiy mazmundagi asrini yaratdi [30.320.]. Tabibiyning bu asari Xiva tarixnavislik maktabiga xos bo‘lgan Muhammad Rizo Ogahiy an’analarini davom ettirgan holda, Muhammad Rahimxon II Feruz hukmdorligi yillarida Xorazm xonligida yashab ijod qilgan 30 dan ortiq shoirlarlar, adiblar, tarixchilar va ularning faoliyati, shuningdek, shu davrdagi siyosiy va ijtimoiy jarayonlari tarixini yoritib bergan mukammal tazkiralardan biri hisoblanadi. Bu haqda U.Dolimov quyidagilarni yozadi: -“Ahmad Tabibiy shaxsiyati, ijodiy merosi haqida dastlab Muhammad Yusuf Bayoniy, rus turkshunosi A. N. Samoylovich, shoirning zamondoshi Hasanmurodqori Muhammadamin Laffasiy asarlarida ma’lumot berilgan. Laffasiy yozadi: «Feruzning farmoni ilan Ahmadjon dag‘i Tabibiy taxallusi bilan she’r mashqin qilib, ancha abyotlar yozib, Feruzga maqbuli tab’ bo‘lib, to‘rt mujallad devon asar tab’ qilibdur. Ikki mujallad forsiy tilida, ikki mujallad turkiy — o‘zbek tilida bo‘lib, onlardan digari Feruzning farmoni bilan bir yil muddat ichra jami shuaroni tartibga solib, yozib chiqadur» [31;32.464.].

Xulosa. Xorazm-Xiva tarixnavislik maktabining tarjimachilik yo‘nalishida o‘zbek tiliga tarjima jarayonida asl manbalarning mazmunini saqlab qolgan holda, ayrim holatlarda esa she’riy nazm shaklda yozilgan matnni nasriy bayonga o‘tkazib, o‘quvchilar uchun qulay va tushunishga oson tarzda tarjimasi amalga oshirilgan.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, XIX – XX asr boshlari Markaziy Osiyoda shakllangan Qo‘qon, Toshkent, Buxoro tarixnavislik maktablari orasida Xorazm-Xiva tarixnavislik maktabi an’anaviy tarixnavislikka nisbatan tarixnavislik jarayonlarida asarlarning bayonida o‘zbek tiliga ustuvorlik berilganligi, tarixnavislar faoliyati hamda tarixnavislik asarlarining mazmun jihatdan tarixiy izchilligining bir-birini davom ettirishi va to‘ldirib kelishi xususiyatiga ko‘ra umumiy yaxlitlik kasb etishi, ayni vaqtda tarixnavislarning ham biri ikkinchisining faoliyatini davom ettirgan holda Xiva xonligi tarixining yaxlit va umumiy manzarisini shakllantirib berganligi, shuningdek, Xorazm tarixnavisligining alohida muhim bir yo‘nalishi sifatida tarixiy va badiiy asarlarning tarjimachilik mktabining shakllanganligi kabi jihatlari bilan o‘ziga xos tarixnavislik maktaba sifatida namoyon bo‘lish bilan birgalikda Markaziy Osiyoda tarixnavislikning taraqqiy etishi va tarix fanining rivojlanishida muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мунировр Қ. Хоразмда тарихнавислик (XVII-XIX ва XX аср бошлари). Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент. 2002. 4-б.
2. Қайюмов, П. Тазкираи Қайюмий: (Муаллиф дасхати асосида нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи А. Қаюмов). – Тошкент: ЎзР ФА Қўлёзмалар институти таҳририй-нашриёт бўлими, 1998. – 664 б.
3. Қайюмов П. (Пўлатжон Домулла Қайюмов). “Тазкираи Қайюмий” /масъул муҳаррир: Л.Қаюмов/. -Т.”ЎзР ФА Қўлёзмалар институти таҳририй нашриёт бўлими”, 1-жилд. 1999. 100-б.
4. Назирова Ҳ. Қўнғиротлар сулоласи тарихнавислигида Муҳаммадризо Огаҳийнинг «Зубдат ут-таворих» асари. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент 2022. 50 б.
5. Муҳаммад Ризо Огаҳий (1809-1874 йй). https://allomalar.uz/ky/scientist-info/43
6. Дармонова М. Хоразм таржимон ва ҳаттотлари. “Моддий-маънавий мерос ва умумбашарий қадриятлар. Республика илмий-амалий анжумани материаллари. 12-китоб. Тошкент. 2020. 218-227-бб.
7. Муҳаммад Ризо Табибий - Аҳмад Али Муҳаммад ўғли, 1869 -Хива -1911) - шоир, тарихнавис, таржимон, табиб.
8. Табибий, Муҳаммад Ризо. Тарихи хоразмшоҳий // Хоразм тарихнавислик мактаби намояндалари. – Тошкент: Фан, 2010. – Б. 84-110.
9. Муҳаммад Юсуф Баёний - Муҳаммад Юсуфбек Бобожонбек ўғли, (1858-Хива-1923) - ўзбек шоири, тарихчи, мусиқашунос, хаттот ва таржимон.
10. Муҳаммад Юсуф Баёний “Шажараи Хоразмшохий”. Т. Мерос. 1991.
11. Мунис. Фирдавс ул-иқбол / Мунис, Огаҳий; масъул муҳаррир ва туркум муаллифи Ш. Воҳидов. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. – 517 б.

12. Огаҳий, Муҳаммад Риза Эрниёзбек ўғли. Шоҳидул-иқбол (Иқбол шаҳодати) / Муҳаммад Риза Эрниёзбек ўғли Огаҳий; нашрга тайёрловчи Н. Шодмонов. Тошкент. Муҳаррир, 2009. -335 б; Огаҳий, Муҳаммад Ризо Эрниёзбек ўғли. Шоҳидул-иқбол (Иқбол шаҳодати). Ж. 7. – Тошкент : Шарқ, 2019. – 384 б.
13. Огаҳий, М. Р. Жомеъ ул-воқеоти султоний. Асарлар. Ж. 6 / Муҳаммад Ризо Огаҳий. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1980. – 126 б.
14. Огаҳий, М. Р. Зубдату-т-таворих (Тарихлар сараси) / Муҳаммад Ризо Огаҳий; нашрга тайёрловчи Н. Жабборов. – Тошкент : O'zbekiston, 2009. – 240 б.
15. Огаҳий, М. Р. "Риёзуд-давла". Ж.5 / Муҳаммад Ризо Мироб Эрниёзбек ўғли Огаҳий; нашрга тайёрловчи Ғ. Каримов; масъул муҳаррир С. Долимов. Тошкент, 1978. – 214 б.
16. Огаҳий, М. Р. Асарлар : 6 жилдлик. Ж. 6. Тарихий асарлардан парчалар / Муҳаммад Ризо Огаҳий. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – 208
17. Комилов, Н. Муҳаммадризо Огаҳийнинг таржимонлик маҳорати: филол. фан ном. дисс... / Н. Комилов. Тошкент, 1970. – 349 б
18. Муниров, Қ. Мунис, Огаҳий ва Баёнийнинг тарихий асарлари – Ўрта Осиё тарихига оид манбалардир. тарих фан. номзоди … дисс... / Қ. Муниров. – Тошкент, 1961. – 267 б;
19. Атоқли шоир, тарихнавис, таржимон: Огаҳий ҳақида мақолалар / таҳрир ҳайъати: А. Абдуғафуров [ва бошқ.]. -Тошкент. Халқ мероси, 1999. -152 б
20. Муниров, Қ. Мунис, Огаҳий ва Баёнийларнинг тарихи / Қ. Муниров. – Тошкент : ЎзФАН, 1961.– 165 б
21. Агахи, М. Р. Зубдат ал-таварих : научно-критический текст / Мухаммад Риза Мираб Агахи ; сост. Х. Назирова. – Ташкент ; Самарканд, 2016. – 304 с.
22. Огаҳий (тахаллуси; тўлиқ исм-шарифи Муҳаммадризо Эрниёзбек ўғли) (1809.17.12, Хива яқинидаги Қиёт қишлоғи - 1874.14.12) - шоир, тарихчи, таржимон.
23. Комилов, Н. Муҳаммадризо Огаҳийнинг таржимонлик маҳорати : филол. фан ном. дисс... / Н. Комилов. Тошкент, 1970. – 349 б
24. Камилов Н. Хорезмская школа перевода (проблемы типологии и сопоставительное исследование истории перевода в XIX в.). Диссертация на соискание ученой степени доктора филологических наук. –Т., 1987. –С. 18
25. Назирова Ҳ. Қўнғиротлар сулоласи тарихнавислигида Муҳаммадризо Огаҳийнинг «Зубдат ут-таворих» асари. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент 2022. 12-13-бб.
26. Жумаев Н. Муҳаммадризо Огаҳий (1809-1894) // https://ziyouz.uz/ozbek-sheriyati/ozbek-mumtoz-sheriyati/ogahiy
27. Муҳаммад Ризо Огаҳий (1809-1874 йй). https://allomalar.uz/ky/scientist-info/43
28. Хива адабий муҳити // http://xorazmiy.uz/uz/pages/view/612
29. Дармонова М. Хоразм таржимон ва ҳаттотлари. "Моддий-маънавий мерос ва умумбашарий қадриятлар. Республика илмий-амалий анжумани материаллари. 12-китоб. Тошкент. 2020. 218-227-бб.
30. Табибий, Муҳаммад Ризо. Мажмуат уш-шуаро / Таҳрир ҳайъати: А. Қаюмов ва бошқ. – Тошкент: «Ёзувчи», 1999. 320 б.
31. Улуғбек Долимов. Аҳмад Табибий (1869-1910) // https://ziyouz.uz/ilm-va-fan.
32. Қосимов Б., Юсупов ш., Долимов У., Ризаев Ш., Аҳмедов С. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Тошкент, "Маънавият". 2004. 464 б.
33. Firdaws al-Iqbal : History of Khorezm by Shir Muhammad Mirab Munis. Leiden, E. J. Brill, 1999, LXXVII-718 p.
34. Usmanova G. The study of Firdaws al-iqbal in western academia. / Problems of foreign language research and teaching. 5(20), Feb., 2025. P.397-401.